

**Vazirlik markaziy apparatida mavjud bo‘sh ish o‘rni, ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo‘yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar to‘g‘risidagi
MA’LUMOT**

T/r	Bo‘sh ish o‘rinlari soni	Ishga qabul qilish shartlari	Nomzodlarga qo‘yiladigan talablar	Taqdim qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar
Ichki audit boshqarmasi Masofaviy nazoratni amalga oshirish va xavf-xatarlarni baholash bo‘limi boshlig‘i				
1.	1	1. Iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, soliqlar va soliqqa tortish, bojxona ishi, moliya va moliyaviy texnologiyalar, bank ishi, statistika, savdo ishi ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tegishli oliy ma’lumotga ega bo‘lishi; 2. Moliya, davlat moliyaviy nazorat organlarida 4 yil buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishlari bo‘yicha mehnat stajiga ega bo‘lishi, shundan kamida 2 yili rahbarlik lavozimidagi mehnat stajiga ega bo‘lishi; 3. Ichki audit bo‘yicha milliy malaka sertifikatiga ega bo‘lishi.	1) O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va soha bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni bilishi, qonunchilik hujjatlari bilan ishlay olishi, normativ-huquqiy hujjat hamda standartlarni ishlab chiqish va ular bilan ishlash tajribasiga ega bo‘lishi, masofaviy auditni qo‘llagan holda budjet mablag‘laridan maqsadsiz va samarasiz foydalanish xavflarini aniqlash, minimallashtirish, ularni sodir etishga imkoniyat yaratuvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish orqali budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlari profilaktikasini amalga oshira olishi; 2) Davlat xizmatchisi to‘g‘risidagi qonun talablari mos kelishi hamda tadbirkorlik subyektlarida ishtirokchi bo‘lmasligi va ulushga ega emasligi; 3) Namunaviy shaxsiy fazilatlarga-intellekt, mustaqil qaror qabul qilish va ish tutish, qat’iy harakat qilish, muassasa strategik maqsadlariga erishishni ta’minlash xususiyatlariga ega bo‘lishi, strategik va tahliliy fikr yurita olishi, qarorlarni tez qabul qila olishi hamda ularni bajara olishi.	

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat bo'limi yetakchi mutaxassisi

2.	1	1. Iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, soliqlar va soliqqa tortish, moliya va moliyaviy texnologiyalar, bank ishi, statistika, savdo ishi, yurisprudensiya, tergov faoliyati, tezkor-qidiruv faoliyati, huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati, ekspert-kriminalistika faoliyati, huquqbuzarliklarning oldini olish va fosh etish faoliyati, xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash (yurist-psixolog) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tegishli mutaxassislikka ega bo'lishi; 2. Davlat va nodavlat tashkilotlarida kamida 3 yillik, shundan kamida 1 yillik korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi mehnat stajiga ega bo'lishi; 3. Qonunchilik va normativ-huquqiy hujjatlar hamda standartlarni ishlab chiqish va ular bilan ishlash tajribasiga ega bo'lish.	1) Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi – e-anticor.uz; 2) Ijro intizomi idoralararo elektron tizimi – edo.ijro.uz; 3) Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi – project.gov.uz elektron platformalarida ishlash bo'yicha mukammal ko'nikmaga ega bo'lishi lozim; 4) Davlat tilini mukammal darajada bilishi (suhbat jarayonida og'zaki va yozma nutqda fikrlarini uzviy ifoda eta olishi inobatga olinadi); 5) Xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlarga ega bo'lishi ustuvorlik beradi; 6) Davlat xizmatchisi sifatida odob-axloq va etika qoidalari talablarini bilishi; 7) Namunaviy shaxsiy fazilatlariga, madaniyatlilik, yetakchilik, xushmuomalalik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik qobiliyatiga, mas'uliyat hissi, mustaqil qaror qabul qilish va ish tutish, qat'iy harakat qilish, strategik maqsadlarga erishishni ta'minlash xususiyatlariga ega nomzodlarga ustuvorlik beriladi.	
----	---	---	--	--

Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi bosh mutaxassisi

4	1	1. Iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, soliqlar va soliqqa tortish, moliya va moliyaviy texnologiyalar, bank ishi, biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tegishli mutaxassislikka ega bo'lishi; 2. Davlat tashkilotlarida kamida 3 yillik, shundan kamida 2 yillik moliya-iqtisod sohasiga oid mehnat stajiga ega bo'lishi; 3. Ish yuritish asoslarini bilish (turli vakolatli organlar va xalqaro tashkilotlar bilan yozishmalar olib borish uchun); 4. Normativ-huquqiy hujjatlar haqida bilimga ega bo'lish (ierarxiya, ishlab chiqish, kelishish va e'lon qilish jarayonlari); 5. Davlat tilini mukammal bilishi; 6. Rus va ingliz tillarida ish yuritish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslarga ustuvorlik beriladi.	1) "UzASBO" – dasturiy majmuasi; xarid.uzex.uz – davlat xaridlari elektron tizimi; my.soliq.uz – soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali; edo.ijro.uz – ijro intizomi idoralararo elektron tizimi; project.gov.uz – normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi hamda boshqa zamonaviy axborot texnologiyalari va internet tarmog'ida mustaqil foydalanuvchi sifatida turli ish dasturlari bilan ishlash bo'yicha yetarli ko'nikmaga ega bo'lishi; 2) Davlat tilini mukammal darajada bilishi (suhbat jarayonida og'zaki va yozma nutqda fikrlarini uzviy ifoda eta olishi inobatga olinadi); xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlariga ega bo'lishi afzalliklar beradi (nomzodlarni tanlashda ularning imkoniyatlari teng bo'lib qolgan taqdirda, xorijiy tilni bilish darajasini belgilovchi IELTS, TOEFL, IBT, CEFR kabi sertifikatlarining darajasiga qarab yuqori darajaga ega bo'lgan nomzodlarga qo'shimcha ball beriladi).	
---	---	--	---	--